



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING**  
**BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan  
tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni, “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini xorijiy til va zamonaviy kasblarga o‘qitish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 2-fevraldagi PQ-53-son, “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-393-son hamda Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2017-yil 15-martdagi 140-son qarorlariga muvofiq umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun tayanch o‘quv rejalarni tasdiqlash maqsadida **buyuraman:**

1. Quyidagilar:

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 1-ilovaga muvofiq;

Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 1a-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja 2-ilovaga muvofiq;

Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga tushuntirish xati 2a-ilovaga muvofiq;

Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayanch o‘quv reja 3-ilovaga muvofiq;

Ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan birinchi namunadagi tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 3a-ilovaga muvofiq;

Ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o'quv reja 4-ilovaga muvofiq;

Ta'lim qardosh (qozoq, qirg'iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati 4a-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi ikki hafta muddatda hududdagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejani ishlab chiqsin hamda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi bilan kelishilgan holda tasdiqlasin.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, raqamlashtirish va sun'iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Abdukarimov) 2026-yilning 30-avgust kuniga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalari uchun 2026-2027-o'quv yiliga mo'ljallangan barcha turdagi o'quv rejalarni maktab ta'limi tizimini boshqarishning yagona dasturiy majmuasi axborot tizimi - erp.maktab.uzga kiritish jarayonlarini O'quv jarayonini metodik ta'minlash va darsliklar boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan o'quv rejalarga muvofiq amalga oshirsin.

4. 2026-2027-o'quv yilidan boshlab, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 4-sinfida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy etilsin.

5. A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti (A.Ismailov) 2026-yilning 20-avgust kuniga qadar umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun "Informatika va axborot texnologiyalari" fanining mazmun-mohiyati bo'yicha qisqa muddatli onlayn o'quv kurslarini tashkil etsin.

6. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida "Informatika va axborot texnologiyalari" fani joriy qilinishi munosabati bilan tashkil etiladigan qisqa muddatli onlayn o'quv kurslarda boshlang'ich sinf o'qituvchilari ishtirokini ta'minlash;

2026-2027-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv reja va uning tushuntirish xatida belgilangan vazifalarning bajarilishini ta’minlash;

umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadan kelib chiqqan holda muassasa xodimlarining ish yuklamalari tarifikatsiyasi va dars jadvallarining ishlab chiqilishini ta’minlash;

2026-yil 30-avgustga qadar 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejadagi yangiliklar hamda tushuntirish xatining mazmun-mohiyatini keng yoritish maqsadida barcha umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining direktorlari va pedagog xodimlari uchun seminar-treninglar tashkil etish vazifalari yuklatilsin.

7. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida tayanch o‘quv rejani bajarish, natijalarini tahlil etib borish va o‘qituvchilar o‘rtasida dars soatlarini O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil

20-iyundagi 8-mh-, 28- va 124/1-son qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) bilan tasdiqlangan Umumta’lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomning 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlash ishlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari hamda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari direktorlari shaxsan mas’ul etib belgilansin.

8. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2025-yil 10-apreldagi “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2025-2026-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejani tasdiqlash to‘g‘risida”gi 121-son buyrug‘i 2026-yil 31-avgust kundan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

9. Devonxona (X.Raximbayeva) ushbu buyruqni bir kunlik muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari, A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti hamda Respublika ta’lim markaziga yetkazilishini ta’minlasin.

10. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2026-yil “10”-aprel,  
133-son



**E.Karimova**

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2026-yil “10”-apreldagi  
133-son buyrug‘iga  
1- ILOVA

**Ta’lim o‘zbek tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun  
2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili	4	4	4	4	4	4	3	3	3	2	2	<b>37</b>
2	O‘qish savodxonligi	4	3	3	3								<b>13</b>
3	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	<b>14</b>
4	Rus tili		2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>20</b>
5	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	<b>29</b>
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
6	Tarixdan hikoyalar					2							<b>2</b>
7	Qadimgi dunyo tarixi						2						<b>2</b>
8	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	<b>8</b>
9	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	<b>5</b>
10	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	<b>4</b>
11	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	<b>11</b>
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>69</b>
12	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					<b>35</b>
13	Algebra								3	3	3	3	<b>12</b>
14	Geometriya								2	2	2	2	<b>8</b>
15	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	<b>14</b>
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>49</b>
16	Fizika							2	2	2	2	2	<b>10</b>
17	Astronomiya											1	<b>1</b>
18	Kimyo							2	2	2	2	2	<b>10</b>
19	Biologiya							2	2	2	2	2	<b>10</b>
20	Geografiya							2	1,5	1,5	2		<b>7</b>
21	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			<b>1</b>

22	Tadbirkorlik asoslari											1	<b>1</b>
23	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	2	3						<b>9</b>
<b>T/r</b>	<b>Fan yo‘nalishlari va nomlari</b>	<b>Haftalik o‘quv soatlari</b> <i>(sinflar kesimida)</i>											<b>Haftalik umumiy soat</b>
		<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>	<i>5</i>	<i>6</i>	<i>7</i>	<i>8</i>	<i>9</i>	<i>10</i>	<i>11</i>	
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>53</b>
24	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
25	Tasviriy san‘at	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
26	Chizmachilik								1	1			<b>2</b>
27	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			<b>12</b>
28	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>21</b>
29	Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik										2	2	<b>4</b>
<b>Jami soat</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>35</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>31</b>	<b>316</b>

**Ta’lim o‘zbek tilida bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun  
2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga  
TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi**

1. **“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi”** fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili” fani negizida 4 soat “Yozuv”, “O‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Alifbe”;

3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fanlari o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitishni tashkil etishda ota-onalarning talablari va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida mazkur fan bo‘yicha malakali pedagog kadrlarning mavjudligi hamda tegishli darsliklarga buyurtma berilganligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va Kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumiy o‘rta ta’lim muassasasida yoki ma’lum bir sinfda chet tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-4-sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan, 5-11-sinflarda esa “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrda PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarga dars soatlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 20-iyundagi 8-mh-, 28- va 124/1-son qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) bilan tasdiqlangan Umumta‘lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomning 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

9. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2026-yil “10”-apreldagi  
133-son buyrug‘iga  
2-ILOVA

**Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun  
2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili	4	4	4	4	3	3	2	2	2	1	1	<b>30</b>
2	O‘qish savodxonligi	4	3	3	3								<b>13</b>
3	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	<b>14</b>
4	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	<b>27</b>
5	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	<b>29</b>
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
6	Tarixdan hikoyalar					2							<b>2</b>
7	Qadimgi dunyo tarixi						2						<b>2</b>
8	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	<b>8</b>
9	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	<b>5</b>
10	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	<b>4</b>
11	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	<b>11</b>
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>69</b>
12	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					<b>35</b>
13	Algebra								3	3	3	3	<b>12</b>
14	Geometriya								2	2	2	2	<b>8</b>
15	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	<b>14</b>
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>49</b>
16	Fizika							2	2	2	2	2	<b>10</b>
17	Astronomiya											1	<b>1</b>
18	Kimyo							2	2	2	2	2	<b>10</b>
19	Biologiya							2	2	2	2	2	<b>10</b>
20	Geografiya							2	1,5	1,5	2		<b>7</b>
21	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			<b>1</b>
22	Tadbirkorlik asoslari											1	<b>1</b>
23	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	2	3						<b>9</b>

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik oʻquv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
V.	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>53</b>
24	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					7
25	Tasviriy sanʼat	1	1	1	1	1	1	1					7
26	Chizmachilik								1	1			2
27	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			12
28	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	21
29	Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik										2	2	4
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>35</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>31</b>	<b>316</b>

**Ta’lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun  
2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejaga  
TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi**

1. **“Ona tili” va “O‘qish savodxonligi”** fanlari uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili” fani negizida 4 soat “Yozuv”, “O‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Alifbe”;

3-4-choraklarida 4 soat “Ona tili”, 4 soat “O‘qish savodxonligi” fanlari o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitishni tashkil etishda ota-onalarning talablari va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida mazkur fan bo‘yicha malakali pedagog kadrlarning mavjudligi hamda tegishli darsliklarga buyurtma berilganligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va Kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumiy o‘rta ta’lim muassasasida yoki ma’lum bir sinfda chet tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-4-sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan, 5-11-sinflarda esa “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrda PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarga dars soatlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 20-iyundagi 8-mh-, 28- va 124/1-son qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) bilan tasdiqlangan Umumta‘lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomning 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

9. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2026-yil “10”-apreldagi  
133-son buyrug‘iga  
3-ILOVA

**Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan  
umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan  
birinchi namunadagi tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili va o‘qish savodxonligi	8	6	6									20
2	Ona tili				3	2	2	1,5	1,5	1,5	1	1	13,5
3	O‘qish savodxonligi				3								3
4	Adabiyot					2	2	1,5	1,5	1,5	1	1	10,5
5	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
6	Rus tili		1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	10
7	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	29
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
8	Tarixdan hikoyalar					2							2
9	Qadimgi dunyo tarixi						2						2
10	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	8
11	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	5
12	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
13	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>69</b>
14	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					35
15	Algebra								3	3	3	3	12
16	Geometriya								2	2	2	2	8
17	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	14

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik oʻquv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>49</b>
18	Fizika							2	2	2	2	2	<b>10</b>
19	Astronomiya											1	<b>1</b>
20	Kimyo							2	2	2	2	2	<b>10</b>
21	Biologiya							2	2	2	2	2	<b>10</b>
22	Geografiya							2	1,5	1,5	2		<b>7</b>
23	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			<b>1</b>
24	Tadbirkorlik asoslari											1	<b>1</b>
25	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	2	3						<b>9</b>
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>53</b>
26	Musiqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
27	Tasviriy sanʼat	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
28	Chizmachilik								1	1			<b>2</b>
29	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			<b>12</b>
30	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>21</b>
31	Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik										2	2	<b>4</b>
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>35</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>31</b>	<b>316</b>

**Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan birinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga  
TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi**

1. “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Yozuv” hamda 4 soat “Alifbe”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-3-sinflarda 6 soatdan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

4-sinfda 3 soat “Ona tili”, 3 soat “O‘qish savodxonligi” fani o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitishni tashkil etishda ota-onalarning talablari va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, ta’lim muassasasida mazkur fan bo‘yicha malakali pedagog kadrlarning mavjudligi hamda tegishli darsliklarga buyurtma berilganligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va Kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumta’lim maktabida yoki ma’lum bir sinfda chet tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. “**Informatika va axborot texnologiyalari**” fani 1-4-sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan, 5-11-sinflarda esa “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrda PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarga dars soatlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 20-iyundagi 8-mh-, 28- va 124/1-son qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) bilan tasdiqlangan Umumta‘lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomning 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

9. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi  
Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining  
2026-yil “10”-apreldagi  
133-son buyrug‘iga  
4-ILOVA

**Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan  
umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan  
ikkinchi namunadagi tayanch o‘quv reja**

T/r	Fan yo‘nalishlari va nomlari	Haftalik o‘quv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>I.</b>	<b>Filologiya fanlari</b>	<b>9</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>11</b>	<b>12</b>	<b>12</b>	<b>11</b>	<b>10</b>	<b>10</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>113</b>
1	Ona tili va o‘qish savodxonligi	8	7	7									22
2	Ona tili				4	3	3	2	2	2	1	1	18
3	O‘qish savodxonligi				3								3
4	Adabiyot					2	2	2	2	2	2	2	14
5	O‘zbek tili		2	2	2	3	3	3	3	3	3	3	27
6	Chet tili	1	2	2	2	4	4	4	3	3	2	2	29
<b>II.</b>	<b>Ijtimoiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>3</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>32</b>
7	Tarixdan hikoyalar					2							2
8	Qadimgi dunyo tarixi						2						2
9	O‘zbekiston tarixi							2	2	2	1	1	8
10	Jahon tarixi							1	1	1	1	1	5
11	Davlat va huquq asoslari								1	1	1	1	4
12	Tarbiya	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	1	11
<b>III.</b>	<b>Aniq fanlar</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>7</b>	<b>69</b>
13	Matematika	5	5	5	5	5	5	5					35
14	Algebra								3	3	3	3	12
15	Geometriya								2	2	2	2	8
16	Informatika va axborot texnologiyalari	1	1	1	1	1	1	1	1	2	2	2	14

T/r	Fan yoʻnalishlari va nomlari	Haftalik oʻquv soatlari (sinflar kesimida)											Haftalik umumiy soat
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
<b>IV.</b>	<b>Tabiiy va iqtisodiy fanlar</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>8</b>	<b>49</b>
17	Fizika							2	2	2	2	2	<b>10</b>
18	Astronomiya											1	<b>1</b>
19	Kimyo							2	2	2	2	2	<b>10</b>
20	Biologiya							2	2	2	2	2	<b>10</b>
21	Geografiya							2	1,5	1,5	2		<b>7</b>
22	Iqtisodiy bilim asoslari								0,5	0,5			<b>1</b>
23	Tadbirkorlik asoslari											1	<b>1</b>
24	Tabiiy fan (Science)	1	1	1	1	2	3						<b>9</b>
<b>V.</b>	<b>Amaliy fanlar</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>6</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>4</b>	<b>53</b>
25	Musiqqa madaniyati	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
26	Tasviriy sanʼat	1	1	1	1	1	1	1					<b>7</b>
27	Chizmachilik								1	1			<b>2</b>
28	Texnologiya	1	1	1	1	2	2	2	1	1			<b>12</b>
29	Jismoniy tarbiya	1	2	2	2	2	2	2	2	2	2	2	<b>21</b>
30	Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik										2	2	<b>4</b>
<b>Jami</b>		<b>21</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>24</b>	<b>29</b>	<b>30</b>	<b>35</b>	<b>33</b>	<b>34</b>	<b>31</b>	<b>31</b>	<b>316</b>

**Ta’lim qardosh (qozoq, qirg‘iz, tojik va turkman) tillarda olib boriladigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan ikkinchi namunadagi tayanch o‘quv rejaga  
TUSHUNTIRISH XATI**

**I. O‘quv soatlarining taqsimlanishi**

1. **“Ona tili va o‘qish savodxonligi”** fani uchun ajratilgan haftalik o‘quv soatlar 1-sinfda quyidagicha taqsimlanadi:

o‘quv yilining 1-2-choraklarida “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani negizida 4 soat “Yozuv” hamda 4 soat “Alifbe”, 3-4-choraklarida 8 soat “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

2-3-sinflarda 7 soatdan “Ona tili va o‘qish savodxonligi” fani;

4-sinfda 4 soat “Ona tili”, 3 soat “O‘qish savodxonligi” fani o‘qitiladi.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida chet (ingliz, nemis, fransuz va boshqa) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitishni tashkil etishda ota-onalarning talablari va o‘quvchilarning xohish-istaklari, shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim muassasasida mazkur fan bo‘yicha malakali pedagog kadrlarning mavjudligi hamda tegishli darsliklarga buyurtma berilganligi inobatga olinishi lozim.

Bunda, umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Kuzatuv kengashi 1-sinflarda ota-onalarning talabi va o‘quvchilarning xohish-istaklari asosida ular tomonidan tanlangan chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan birini chet tili fani sifatida o‘qitish to‘g‘risidagi iltimosnoma bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashiga murojaat qiladi. Ushbu murojaat umumiy o‘rta ta’lim muassasasining Pedagogik kengashida muhokama qilinadi va Kengashning ushbu fanni chet tili sifatida o‘qitilishi yoki asosli sabablari ko‘rsatilgan holda o‘qitish imkoniyati yo‘qligi to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Mazkur qaror asosida chet (*ingliz, nemis, fransuz va boshqa*) tillardan biri umumiy o‘rta ta’lim muassasasida yoki ma’lum bir sinfda chet tili fani sifatida o‘qitiladi.

3. **“Informatika va axborot texnologiyalari”** fani 1-4-sinflarda o‘quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlashini rivojlantirishga qaratilganligi sababli mazkur fan boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari tomonidan, 5-11-sinflarda esa “Informatika va axborot texnologiyalari” fani o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

4. **“Tabiiy fanlar”** (Science) fani boshlang‘ich sinflarda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari va 5-6-sinflarda “Fizika”, “Biologiya”, “Geografiya” fanlari o‘qituvchilari tomonidan o‘qitiladi.

5. **“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik”** fani mashg‘ulotlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 15-noyabrda PQ-393-son qaroriga muvofiq tashkil etiladi.

## **II. Yakuniy qoidalar**

6. O‘quv jarayonini tashkil etish, xususan ayrim fanlarni ikki guruhga bo‘lib o‘qitish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o‘rta ta‘lim to‘g‘risidagi nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

7. Mazkur namunaviy tayanch o‘quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o‘rta ta‘lim muassasasi 2026-2027-o‘quv yiliga mo‘ljallangan o‘quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

8. Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari o‘qituvchilarga dars soatlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020-yil 20-iyundagi 8-mh-, 28- va 124/1-son qarori (*O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 30-iyunda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3271*) bilan tasdiqlangan Umumta‘lim muassasalarida sinflarni komplektlash hamda tarifikatsiya ro‘yxatlarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida nizomning 15-bandida belgilangan ko‘rsatkichlar ketma-ketligi asosida taqsimlanadi.

9. Barcha turdagi davlat umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida mazkur o‘quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg‘ulotlar) davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.